



UDK: 930.23:902(575.1)

Umirzoq MUSOYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi
E-mail: Dovurovbek@gmail.com,

PhD A.Aliyev taqrizi asosida

ISSUES OF CULTURAL AND NATURAL HERITAGE PRESERVATION IN THE ACTIVITIES OF TURKKOMSTARIS (1920–1924)

Annotation

The article examines the issues of cultural and natural heritage preservation in the activities of the Committee for Museums and Protection of Monuments of Antiquity, Art and Nature of the Turkestan Republic (Turkkomstaris) in 1920–1924, based on archival documents. The organizational structure of the committee, museum construction, establishment of nature reserves, management of scientific expeditions, and restoration of architectural monuments are analyzed.

Key words: Turkkomstaris, cultural heritage, natural monuments, museum construction, nature reserves, scientific expeditions, architectural monuments, archival documents.

ВОПРОСЫ ОХРАНЫ КУЛЬТУРНОГО И ПРИРОДНОГО НАСЛЕДИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРККОМСТАРИСА (1920–1924 ГГ.)

Аннотация

В статье на основе архивных документов рассматриваются вопросы охраны культурного и природного наследия в деятельности Комитета по делам музеев и охраны памятников старины, искусства и природы Туркестанской Республики (Турккомстарис) в 1920–1924 гг. Анализируются организационная структура комитета, музейное строительство, создание заповедников, управление научными экспедициями и реставрация архитектурных памятников.

Ключевые слова: Турккомстарис, культурное наследие, природные памятники, музейное строительство, заповедники, научные экспедиции, архитектурные памятники, архивные документы.

TURKKOMSTARIS FAOLIYATIDA MADANIY VA TABIIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI (1920–1924-YILLAR)

Annotatsiya

Maqolada Turkiston Respublikasi muzey ishlari va qadimiy yodgorliklar, san’at hamda tabiatni muhofaza qilish bo’yicha Qo’mita (Turkkomstaris)ning 1920-1924-yillardagi faoliyatiga oid arxiv hujjatlari asosida madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish masalalari yoritilgan. Turkkomstarisning tashkiliy tuzilishi, muzey qurilishi, qo’riqxonalar tashkil etish, ilmiy ekspeditsiyalarni boshqarish hamda me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash kabi yo’nalishlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Turkkomstaris, madaniy meros, tabiiy yodgorliklar, muzey qurilishi, qo’riqxonalar, ilmiy ekspeditsiyalar, me’moriy yodgorliklar, arxiv hujjatlari.

Kirish. X asrning 20-yillari O’rta Osiyo mintaqasida madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish tizimi shakllanishida muhim bosqich bo’ldi. 1920-yilda Turkiston Respublikasida muzey ishlari, qadimiy yodgorliklar, san’at hamda tabiatni muhofaza qilish bo’yicha Qo’mita - Turkkomstaris tashkil etildi. Ushbu muassasa mintaqadagi boy madaniy va tabiiy merosni ilmiy asosda o’rganish, hisobga olish va muhofaza qilish vazifalarini o’z zimmasiga oldi.

Turkiston hududida insoniyat hayotining qadimiy bosqichlariga oid arxeologik qatlamlarning mavjudligi, shuningdek, turli xalqlar va madaniyatlarning tarixiy almashinuvi boy moddiy madaniyat merosining shakllanishiga asos bo’lgan. Turli davrlar va etnik guruhlarga mansub yodgorliklar, arxeologik topilmalar hamda madaniy ahyolarning ko’pligi O’rta Osiyo madaniy boyliklarini aniqlash, hisobga olish va ilmiy jihatdan o’rganish ishlarini markazlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyoj Turkkomstaris faoliyatining ilmiy-amaliy asosini belgilab berdi hamda mintaqadagi madaniy meros obyektlarini tizimli ravishda aniqlash, tasniflash va muhofaza qilish jarayonini boshlab berdi.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida Turkkomstarisning tashkil

topishi, tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari hamda madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish tizimidagi o’rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda, shuningdek, muassasaning muzey qurilishi, qo’riqxonalar tashkil etish, ilmiy ekspeditsiyalarni boshqarish hamda me’moriy yodgorliklarni ta’mirlashga oid faoliyat yo’nalishlari arxiv materiallari asosida yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu bo’yicha asosiy manbalar O‘zbekiston Milliy arxivining 394-fondi hujjatlariga tayanadi. Mazkur hujjatlar Turkkomstarisning tashkiliy tuzilishi, muassasalar tarmog’i, muzey qurilishi, qo’riqxonalar tashkil etish, ilmiy ekspeditsiyalarni ro’yxatdan o’tkazish va me’moriy yodgorliklarni ta’mirlashga oid ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Shuningdek, Narkompros Kollegiyasi qarorlari, Qo’mita kengashi bayonnomalari, smetalar, shartnomalar va yozishmalar mavzuni manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Arxiv hujjatlarining mazmuni shuni ko’rsatadiki, Turkkomstaris faoliyati faqat alohida yodgorliklarni muhofaza qilish bilan cheklanmagan, balki mintaqada muzeysunoslik, arxeologik tadqiqotlar, tabiatni muhofaza qilish va ilmiy ekspeditsiyalar faoliyatini markazlashtirishga xizmat qilgan. Shu sababli mavjud manbalar mazkur tashkilotning O’rta Osiyo

madaniy va tabiiy merosini saqlashdagi o'rnini kompleks o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va arxiv hujjatlarini tanqidiy o'rganish metodlaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlarida keltirilgan qarorlar, nizomlar, smetalar, shartnomalar va bayonnomalar o'zaro qiyoslanib, Turkkomstaris faoliyatining asosiy yo'nalishlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, tashkilot faoliyatidagi institutsional, moliyaviy va tashkiliy muammolar tarixiy jarayonlar kontekstida baholandi.

Tahlil va natijalar. Turkkomstaris Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi huzurida faoliyat yuritib, o'z tarkibida bir qancha bo'limlarni birlashtirgan. Arxiv hujjatlariga ko'ra, Qo'mita tarkibiga muzey seksiyasi, qadimiy yodgorliklar va san'atni muhofaza qilish seksiyasi hamda tabiatni muhofaza qilish seksiyasi kirgan. Turkkomstaris raisi D.I. Nechkin boshchiligidagi Qo'mita kengashi tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga Markazdan - Bosh muzey (Glavmuzey), Muddiy madaniyat tarixi akademiyasi vakillaridan tashqari, O'rta Osiyoning asosiy millatlari - o'zbeklar, qirg'izlar va turkmanlar vakillari ham kiritilgan[1].

1923-yil 22-avgustda bo'lib o'tgan Narkompros Kollegiyasi majlisida D.I. Nechkinning Turkkomstaris tuzilishi, holati va faoliyati haqidagi ma'ruzasi tinglanib, juda kam miqdordagi pul mablag'lari va xodimlar soni oz bo'lishiga qaramay, qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish sohasida katta va qimmatli ishlar bajarilgani qayd etilgan[2]. Narkompros Kollegiyasi Turkkomstarisning navbatdagi joriy ish rejasini ma'qullab, uning tarkibiga 21 bandlik dastur kiritilgan. Bu dasturga ekspeditsiyalar, muzeylarni inventarizatsiya qilish, Turkiston faunasining qimmatli turlarini muhofaza qilish maqsadida qo'riqxonalar tashkil etish, Ahmad Yassaviy masjidini ta'mirlash, zoologik bog' tashkil etish va boshqa bir qator muhim masalalar kiritilgan.

Turkkomstaris tasarrufidagi muassasalar tarmog'i keng qamrovli bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kirgan: Bosh O'rta Osiyo muzeyi, Turkiston Badiiy muzeyi, Turkiston Zoologiya bog'i, Turkman viloyat muzeyi, Samarqand viloyat muzeyi, Jetisuv viloyat muzeyi, Farg'ona shahar muzeyi va Samarqand komissiyasi[3]. 1925-yil 16-aprelda bo'lib o'tgan O'zSSR Narkompros Kollegiyasining 7-sonli majlisida muzeylar tarmog'ini yanada kengaytirish qaror qilinib, Eski Buxoro, Qo'qon, Xiva va Dushanbe shaharlarida yangi muzeylar tashkil etish belgilangan[4].

Turkkomstaris faoliyatida muzey qurilishi markaziy o'rin tutgan. Bosh O'rta Osiyo muzeyi to'g'risidagi nizomga ko'ra, muzeyning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan: umuman O'rta Osiyo bo'yicha tabiatshunoslik, arxeologiya va etnografiyaning barcha sohalarini bo'yicha ilmiy kolleksiyalarni to'plash, jamg'arish, tizimlashtirish, ilmiy qayta ishlash va saqlash; Turkiston Respublikasidagi barcha muzeylarni muzey eksponatlari va ilmiy kolleksiyalar bilan ta'minlash; o'lka o'quv muassasalari uchun ko'rgazmali o'quv qurollarini tayyorlash[5]. Muzey quyidagi bo'limlardan tashkil topgan: geografiya, geologiya, zoologiya, botanika, arxeologiya, numizmatika, etnografiya, harbiy-tarixiy va ijtimoiy inqilob tarixi bo'limlari. O'rta Osiyoning etnografik xususiyatlari sababli etnografiya bo'limiga alohida e'tibor qaratilgan[6]. Muzey huzurida kolleksiyalarni qayta ishlash hamda barcha muzeylar va o'lka o'quv muassasalari uchun eksponatlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash ustaxonalari ham faoliyat yuritgan. Farg'ona shahar muzeyi faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1922-yil oktyabridan 1923-yil sentyabrigacha bo'lgan davrda muzeyni jami 505 kishi ziyorat qilgan bo'lib, shundan 126 tasi musulmon aholidan

iborat bo'lgan[7]. Bu ko'rsatkich muzey ishining aholi orasida asta-sekin ommalashib borayotganidan dalolat beradi.

Turkkomstarisning muhim tashabbuslaridan biri Toshkentda Zoologiya bog'ini tashkil etish bo'ldi. 1922-yil 27-dekabrda Turkkomstaris Kengashining 32-sonli majlisida professor Kashkarovning Botanika bog'ida Zoologiya bog'ini barpo etish to'g'risidagi yozma ma'ruzasi tinglanib, qurilish ishlari boshlanishi qaror qilindi[8]. Zoologiya bog'i uchun sobiq Korolkov chorbog'i ajratilgan bo'lib, 1924-yil 12-aprelda chorbog'ning daraxtlari inventarizatsiya qilingan: jami 483 tup daraxt, shundan 317 tasi bezak daraxtlari, 166 tasi mevali daraxtlar, 110 tup atirgul va 100 tup turli butalar hisobga olingan[9].

Zoologiya bog'ini hayvonlar bilan to'ldirish maqsadida maxsus shartnomalar tuzilgan. 1924-yil 21-mayda Turkkomstaris bilan Jetisuv viloyati Prjevalsk shahridan fuqaro M.I. Chernov o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, Chernov yovvoyi hayvonlarni tutish va ularni Turkkomstarisga yetkazib berish majburiyatini olgan. Shartnomada tutilgan hayvonlarni Turkkomstaris ruxsatisiz sotmaslik, ularning soni va turlari haqida batafsil ma'lumot taqdim etish kabi shartlar belgilangan[10].

Turkkomstarisning Samarqand komissiyasi Samarqand shahridagi tarixiy me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va muhofaza qilish ishlarini boshqargan. 1921-1922-yillarda Mirzo Ulug'bek madrasasi va masjidini ta'mirlash bo'yicha dastlabki smeta tuzilgan bo'lib, bu ishlar muhandis B.N. Kastalskiy rahbarligida olib borilgan[11]. Shuningdek, Qo'qondagi Xudoyorxon saroyini ta'mirlash bo'yicha ham smeta tuzilgan.

Biroq Samarqand komissiyasining ishi oson kechmagan. Turkkomstaris vakili ma'lumot berishicha, mahalliy jamoatchilik vakillari Samarqand komissiyasi faoliyatidan qoniqmaganlar. Yodgorliklarning yetarli darajada muhofaza qilinmayotgani, ularning asta-sekin vayronaga aylanayotgani, hatto minaralarni ushlab turuvchi zanjir ustunlarining mahkamlanmay qolayotgani kabi holatlar tanqid qilingan[12]. Bosh sabab mablag' yetishmasligi bo'lgan - Markazdan 30 000 rubl ajratilgan bo'lsa-da, Samarqand komissiyasiga faqat 1 000 rubl yetib kelgan.

Vakuf yerlarini muhofaza qilish ham Turkkomstaris faoliyatida muhim o'rin tutgan. 1923-yil may oyida TurtsIK Dekretiga qo'shimcha sifatida vakuflarga tegishli yoki diniy hamda madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy yodgorliklarni - masjidlar, mozorlar, madrasalar va boshqalarni muhofaza qilish to'g'risida qaror loyihasi ishlab chiqilgan. Mazkur loyihaga ko'ra, Turkkomstarisga vakuf mulklaridan olinadigan daromadlarning tarixiy yodgorliklarni tiklash va saqlashga sarflanishi ustidan nazorat olib borish huquqi berilgan[13].

Turkkomstarisning tabiatni muhofaza qilish seksiyasi mintaqadagi noyob tabiat obyektlarini aniqlash va muhofaza qilish bilan shug'ullangan. Seksiya uch yil davomida Turkiston hududidagi qimmatli tabiiy obyektlar va maydonlarni aniqlash ishlari natijasida 25 dan ortiq hududni muhofazaga olish rejasini tuzgan[14]. Turkiston tabiatini aks ettiruvchi 300 dan ortiq suratlar jamlangan.

Arxiv hujjatlarida seksiya tomonidan loyihalashtirilgan bir qancha qo'riqxonalar haqida ma'lumotlar mavjud: Aksu-Jabag'li qo'riqxonasi (350 kvadrat verst), Sari Agach qo'riqxonasi (155 va 65 kvadrat verst), Repetek qo'riqxonasi (144 kvadrat verst), Ahcha-Kuyuma qo'riqxonasi (861 kvadrat verst) va Barsa-Kilmas orol qo'riqxonasi (120 kvadrat verst)[15]. Bulardan Aksu-Jabag'li qo'riqxonasini tashkil etish ishlari eng faol olib borilgan. 1925-yil 10-fevralda Chimkent uyezdi Yer tuzish kengashi bir ovozdan qo'riqxonaga tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan[16].

Qoraqum cho'lida ham qo'riqxonalar tashkil etish masalasi ko'tarilgan. Turkman viloyat muzeyi mudiri Bilkeevich O'rta Osiyo temir yo'li bo'ylab qo'riqlanadigan hudud tashkil etish zarurligini asoslab bergan. Inqilobgacha Repetek bekati atrofidagi hududlar boy fauna va flora tufayli G'arbiy Yevropada ham mashhur bo'lgan, biroq so'nggi yillarda bu hudud o'z tabiiy qiyofasini yo'qotgan edi[17].

Toshkent shahri hududida ham muhofazaga muhtoj obyektlar mavjud bo'lgan. Turkkomstaris Toshkent yangi shahrida joylashgan "Ming o'rik" tepaliklarini alohida ilmiy qiymatga ega daxlsiz tabiat yodgorligi deb e'lon qilishni zarur deb hisoblagan. Tepalikning qimmatli tomoni shunda ediki, u butunlay yuvilib kelgan less qatlamlardan iborat bo'lmay, unda less, qum va mayda shag'al qatlamlarining navbatma-navbat almashinishi yaqqol namoyon bo'lar edi[18].

Turkiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1923-yil 23-oktabrdagi 152-sonli qaroriga binoan Turkkomstaris zimmasiga Turkiston hududiga kelayotgan barcha ilmiy ekspeditsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish va ularning faoliyatini tartibga solish vazifasi yuklatilgan[19]. Mazkur qarorga ko'ra, hech bir ekspeditsiya Turkkomstarisda ro'yxatdan o'tmasdan Turkiston hududida ilmiy tadqiqotlar olib borishi mumkin bo'lmagan. 1924-yilda 43 ta ekspeditsiya Turkkomstarisda ro'yxatdan o'tgan[20]. Bu ekspeditsiyalar orasida geologik, zoologik, etnografik, paleontologik va arxeologik yo'nalishlardagi tadqiqotlar mavjud bo'lgan. Masalan, professor Brodskiyning Jetisuv ekspeditsiyasi, professor Gorzdno-Kulchitskayaning Chimkent uyezdidagi paleontologik qazish ishlari, M.S. Andreyevning mahalliy xalqlar turmush tarzini o'rganish ekspeditsiyasi va boshqalar shular jumlasidandir[21].

Turkkomstarisning ekspeditsiyalarni boshqarishdagi muhim tamoyili shundan iborat ediki, u ekspeditsiyalar faoliyatini cheklashni emas, balki ular bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishni va ular tomonidan qo'lga kiritilayotgan materiallardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashni maqsad qilgan. Turli kolleksiya buyumlarining dublikatlaridan, fotosurat nusxalaridan va ortiqcha negativilardan foydalanish nazarda tutilgan[22].

Milliy chegaralanish jarayonida Turkkomstarisni O'rta Osiyo miqyosida faoliyat yurituvchi yagona organga aylantirish masalasi ko'tarildi. Turkkomstaris ilmiy asosda O'rta

Osiyodagi qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish, muzey qurilishi va arxeologiya masalalarini yangi siyosiy chegaralarga bo'linmasdan, yaxlit holda hal etish zarurligini asoslagan[23]. Xalq tashqi ishlar komissari G.V. Chicherin ham Turkiston yodgorliklarini muhofaza qilish ishlarini bir markazda jamlash taklifini to'liq qo'llab-quvvatlagan. 1924-yil 30-iyunda Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasida maxsus kengash chaqirilib, unda yagona organ tashkil etish zarurligi tan olingan va tarkibiga Xalq tashqi ishlar komissarligi, Buxoro, Xorazm va Turkiston respublikalari, Turkkomstaris, Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi va boshqa muassasalar vakillari kiradigan tayyorlov komissiyasi tuzish qaror qilingan[24].

Xulosa va takliflar. Arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkkomstaris 1920–1924-yillarda Turkiston hududida madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish sohasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirgan. Qo'mita muzeylar tarmog'ini shakllantirish va kengaytirish, me'moriy yodgorliklarni hisobga olish va ta'mirlash, qo'riqxonalar tashkil etish, ilmiy ekspeditsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqarish kabi yo'nalishlarda faoliyat yuritgan.

Shu bilan birga, Turkkomstaris faoliyatida bir qator qiyinchiliklar ham mavjud bo'lgan: mablag' yetishmasligi, malakali kadrlar taqchilligi, markazdan ajratilgan mablag'larning to'liq yetib kelmasligi kabi muammolar muhofaza ishlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq shunday og'ir sharoitlarda ham Turkkomstaris mintaqaning boy madaniy va tabiiy merosini saqlash va o'rganish yo'lida muhim asos yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Turkkomstaris tajribasi O'rta Osiyoda madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish tizimining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, uning faoliyati keyingi davrlardagi muzey qurilishi, arxeologik tadqiqotlar va tabiatni muhofaza qilish ishlarini uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Taklif sifatida Turkkomstaris faoliyatiga oid arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, ularning tavsifi va izohli kataloglarini yaratish, muzeylar tarixi hamda tabiatni muhofaza qilish tarixiga doir alohida tematik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mazkur hujjatlar asosida O'rta Osiyoda madaniy merosni muhofaza qilish tizimining shakllanishiga bag'ishlangan qiyosiy tadqiqotlar olib borish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 75-yig'majild. 10a-varoq.
2. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'majild. 5-varoq.
3. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 68-yig'majild. 9a-varoq.
4. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 73-yig'majild. 20-20a-varoqlar.
5. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'majild. 73-74-varoqlar.
6. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 70-yig'majild. 73-varoq.
7. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 77-yig'majild. 31-varoq.
8. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 65-yig'majild. 43-varoq.
9. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 65-yig'majild. 29-varoq.
10. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 72-yig'majild. 94-varoq.
11. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 67-yig'majild. 7-varoq.
12. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 87-yig'majild. 4-4a-varoqlar.
13. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 64-yig'majild. 2-varoq.
14. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 72-yig'majild. 138-139a-varoqlar.
15. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 81-yig'majild. 34-varoq.
16. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 80-yig'majild. 20-21-varoqlar.
17. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 72-yig'majild. 138a-varoq.
18. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 72-yig'majild. 62-varoq.
19. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 72-yig'majild. 14-varoq.
20. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 76-yig'majild. 25-varoq.
21. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 87-yig'majild. 5-5a-varoqlar.
22. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 90-yig'majild. 4-5-varoqlar.
23. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 75-yig'majild. 10-12-varoqlar.
24. O'zMA, 394-fond, 1-ro'yxat, 75-yig'majild. 11a-varoq.